

Boshqa hojilarga daxli yo'q

Do'stim o'g'lini uylantirayotgan edi. Endi... to'y bo'lganidan keyin... O'zingiz bilasiz... Haligi qurg'urdan jinday-jinday qilib o'tirsak, davramizga oq yaktak, oq do'ppi kiygan ketmonsoqol yigit kelib qo'shildi. Kelin-kuyovga baxt-saodat tilab, fotiha tortdi.

- Yaratganga shukronalar bo'lsin! - dedi qiroat bilan. - Muqaddas safar sharafi kaminaga ham nasib ayladi!

"Qulluq bo'lsin", dedik. Dasturxonda anavi "shayton suvi" turganidan xijolat chekdik.

- Ming bor uzr, Hoji aka. - Kosagul shunday deb, shishalarni imi-jimida stol tagiga olib qo'yayotgan edi, Hoji aka keskin bosh chayqadi.

- Yo'q-yo'-yo', taqsir! - dedi dalda berib. - Sizlar bahuzur, taqsir, bahuzur. To'ya xursandchilik qilishning aybi yo'q.

Kosagul ikkilanib qoldi.

- Sizdek mo"tabar odamning oldida...

- Beziyon, taqsir, beziyon... Biz ham bundan bisyor no'sh aylaganmiz. - Hoji aka jinday-jinday ichkilik quyilayotgan piyolalardan ko'z uzmay ta'kidladi: - No'sh aylaganmiz, bisyor no'sh aylaganmiz.

Kosagul shumgina yigit ekan, Hoji akaning ko'zlar suvgaga tushgan munchoqdek yiltirab turganini payqab qoldi.

- So'raganning aybi yo'q, Hoji aka. Mabodo o'zlariyam...

- Yo'yo'-yo'! - Hoji aka keskin bosh chayqadi. - Biz ham no'sh aylaganmiz... Aylaganmiz.

- Ko'p emas, jichchagina, - dedi kosagul iljayib. Hoji aka og'ir muammo qarshisida qolgandek, bir zum o'yga toldi.

- Kaminani ko'p xijolatlari ahvolga sop qo'ydilarda, -dedi xo'rsinib. - Keling, yigitning sazasi o'lguncha shaytonning bo'yni uzilsin!

- Qaysi biridan?

- Kaminaga "qizili" Yam bo'laveradi, - dedi Hoji aka kamtarlik bilan.

Kosagul piyolaga bir qultum konyak quyib uzatgan edi, Hoji aka yanayam siniqroq ohangda qo'shib qo'ydi:

- Jonliroq bo'laversin, taqsir.

"Jonligina" quyilgan piyolani olib, qisqa nutq irod etdi:

- Yoshlar qo'sha qarisin! Uvali-juvali bo'lsin!

Baayni sovuq choy ichayotgandek, qop-qora soqolining bittayam tuki qilt etmadidi. Bodring bilan gazak qilib, "Yaratgan ne'matingga shukr", deb qo'ydi.

- Oxirigacha olmabsiz-ku, Hoji aka? - dedi kosagul piyola tagida qolgan jinday konyakka qarab.

- Har narsaning qonun-qoidasi bor, ukam! - dedi Hoji aka viqor bilan. - Ichkilik xamr, ya'nikim makruh nimarsa. Ammo uning ichida suv ham bor. Suv - eng pokiza ne'mat. Shundaymi? Kamina suvini ichdim. Makruhi tagida qoldi. Aytyapman-ku, kamina ham bundan bisyor no'sh aylaganmiz. -U qiqirlab kului. - Bir ulfatimiz bo'lardi. G'alati gaplarni topib yurardi. Bir gapi hech esimdan chiqmaydi. "Birinchi qadah bilan ikkinchisining orasiga qil ham sig'masligi kerak", derdi. Topgan gapini qarang, battolning! Qil sig'masin, deydi-ya!

Kosagul Hoji akaning ishorasini darrov tushundi. Paysochga solmay, piyolani to'ldirib uzatdi.

- Yo'yo'-yo'! Undoq qilmasinlar-da, ukam! - Hoji aka shunday dedi-yu konyakni sipqardi. "Yaratgan ne'matingga shukr", deb piyolani kosagulga uzatdi. - Ko'rdilarmi, ukam, makruhi yana tagida qoldi. O'zlariyam o'rgansinlar!

Davradagilardan biri safar taassurotlarini so'rangan edi, Hoji aka yayrab ketdi.

- E, nimasini so'raysiz, uka! - dedi shang'llab. - U yoqlar Xizr nazar solgan yurt! Har qadamda magazin! Har qadamda do'kon.

Jamiyi nimarsa muhayyo! Apelsinlarni tekinga tarqatadi-ey! Xohla - bir yashik ol! Xohla - bir tonna ol! Buni qarang, hamma narsa bor-ku, termos yo'q ekan. Uch-taginasini obketuvdim, olam jahon pul bo'ldi! Ulfatim, shuni mengayam aystsang, o'larmidung, deb yomon xapa bo'ldi.

- Kechirasiz, qaysi ulfatingiz? - dedim tushunmay.

- Haligi battol-da! Birinchi qadah bilan ikkinchisining orasiga qil sig'masin, deydigan. Shu battolning yana byr gapi bor. "Ikkinchi qadah bilan uchinchisining orasiga qil sig'masin, deyman-ku, ammo ip sig'masligi kerak", deydi!

Kosagul yana piyolani to'ldirdi. Hoji tagida ozgina qoldirib, piyolani qaytardi.

- Yaratgan ne'matingga shukr, - dedi viqor bilan. - Ko'rib qo'y, ukam! Tagida har gal bir xil makruhi qolyapti! U yoqda-chi, vey, vidik, televizor, kamera deganlari kapiyka! "Soni" deysanmi, "Panasonik" deysanmi, "Plips" deysanmi. Ikkita "vidik" olsang, bittasi tekin!

- Nega, Hoji aka? - dedim hayratlanib. - Bittasini pulga, bittasini tekinga beradimi?

Hoji aka he-helab kului.

- Nega tekinga bo'larkan? Ikki hissa arzon bo'lganidan keyin bittasi yonga qoladimi, axir? Tijoratning aybi yo'q-ku, to'g'rimi?! Biz tijorat qilaveribmiz, qilaveribmiz, qarasam, yukim ko'payib ketibdi. Ikki qo'limda ikkita chamodon. Orqamda sandiqdek sumka. Salapan xaltaning bog'ichini tishimga tishlab olganman. Ketyapsam, bittasi yo'limni to'sdi. O'zining tilida vajir-vajir qiladi, tushunsam o'lay! Tarjimon keldi. "Nima deb aljirayapti bu?" desam, tushuntirdi. "Yukingiz yuz kilodan oshib ketibdi-ku", deydi. "Yukimni og'irligi unga tushibdimi, o'zim ko'tarib ketyapman-ku", desam, yana vajir-vajir qildi. "Nima deyapti?" desam, "Janob ziyyoratchimilar yo'otmilar?" deb so'rayapti deydi. "Men ot bo'lsam, bu eshshak", dedim-da, amallab samolyotga chiqib oldim. - Hoji aka xaxolab kului. Kosagulga qarab ma'noli tomoq qirib qo'ydi. - To'rtta vidik obkelgandim, ikkitasi yonga qoldi.

O'g'ilchayam qiziqadi-da texnikaga. - Shunday deb yana kosagulga qarab qo'ydi. - U yoqda-chi, dazmol pul ekan. Yanagi gal dazmol oboramani. Battol ikkalamiz o'nta-o'ntadan olvolsak, o-key bo'ladi! Battolning yana bir gapi bor. Uchinchi qadah bilan to'rtinchisining orasiga qil sig'masin deyman, ip sig'masin demayman, ammo-lekin arqon sig'adigan bo'p ketsa, yurak siqiladi-da, deydi. Topgan gapini qarang! Voi battol-ey!

Kosagul shishadagi oxirgi konyakni silqitib quyib uzatdi.

Shishani yerga tashladi. Hoji aka tagida ozgina qoldirib, piyolani qaytardi.

- Yaratgan ne'matingga shukr! Ko'rib qo'y, bratan! Makruhi tagida qoldi!

- U yoqda manavi masalaga qandoq qaraydilar, taqsir? - dedi kosagul.

- Unaqangi betamiz gaplarni gapirma, bratan! - dedi Hoji aka achchiqlanib. - Ichkilik ichgan odam o'limga mahkum qilinadi!

- Voi-bo', bir o'limdan qopsiz-da, taqsir! - dedi kosa-gul. - Taqsir o'n beshinchi bo'chka bilan o'n oltinchi bo'chka orasidan samosval o'tmaguncha qo'ymaydilar shekilli!

Hoji aka tutaqib ketdi.

- Og'zingga qarab gapir, o'v bratan! - dedi qo'lini paxsa qilib. - Men suvini ichdim, bildingmi? Makruhi tagida qoldi, bildingmi?!

This is not registered version of TotalDocConverter  
AVI to MP3 Converter, Key is missing, sorry!!!

Qarasam, janjal chiqadigan. Sekin turib keta qoldim.